Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 6 2026

OTA-ONA VA FARZANDLAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Sharapova Sabohat Jabbarovna

P.f.f.d., GulDU professori

Norqulova Oyjamol Shokir qizi

GulDU talabasi

Annotatsiya: Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lib, unda shaxsning shakllanishi, ijtimoiylashuvi va rivojlanishi amalga oshadi. Ayniqsa, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar shaxs kamolotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu munosabatlar nafaqat individual psixologik xususiyatlarga, balki ijtimoiy muhit, madaniyat, qadriyatlar tizimi va tarbiya uslublariga ham bevosita bog‘liqdir.

Mazkur maqolada ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik asoslari, ularning shakllanish omillari hamda shaxs rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Oila muhitining farzand shaxsiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sirlari, tarbiya uslublari hamda zamonaviy ijtimoiy omillarning roli ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishning samarali usullari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: oila, tarbiya, ijtimoiylashuv, emotsional bog‘lanish, ota-ona uslublari, muloqot, shaxs rivojlanishi.

Taraqqiyot spektri

Kirish. Zamonaviy jamiyatda bolani har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishda oilaning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Oila nafaqat farzandning jismoniy ehtiyojlarini qondiruvchi muhit, balki uning ijtimoiylashuvi, qadriyatlari, xulq-atvori va shaxs sifatida kamol topishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy institutdir. Shu bois, oilaviy muhitdan mahrum bo‘lgan yoki muqobil oilaviy sharoitlarda tarbiyalanayotgan bolalarning keyingi hayotga moslashuvi masalasi alohida e’tiborni talab etadi.

Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida shaxsning shakllanishida hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Ayniqsa, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar insonning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va hayotiy qadriyatlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu munosabatlarning samaradorligi oila muhitining sog‘lomligi, tarbiya uslublari va muloqot darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy jamiyat sharoitida globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda ijtimoiy o‘zgarishlar ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu sababli ushbu muammoni ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqola doirasida quyidagi qonun hujjatlari va mavzuga doir adabiyotlar o‘rganilib, tahlil qilindi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*ning* 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-sonli Qarori mazkur muammoning dolzarbligini belgilaydi.[1] Mamlakatimiz yoshlarini komil inson qilib kamol toptirish uchun o‘quvchilarni o‘zini o‘zi boshqarishni boshlang‘ich sinflardayoq o‘rgatishimiz bugungi kun talablaridan biri bo‘lib qolmoqda. [2]

Taraqqiyot spektri

Shuningdek, yoshlarning tarbiyasi va o‘ziga xosligi masalalari O. Kont, T. Gobbs, Dj. Lokk, E. Dyurkgeym, Z. Freyd, M. Veber kabi klassik olimlar, shuningdek V. Shtern, J. Piaje, A. S. Makarenko, T. F. Yefremova, S. M. Solovyov tomonidan o‘rganilgan. O‘zbek olimlaridan N. M. Egamberdiyeva, O. Musurmonova, K. Xasanova, R. A. Umurzakova, K. U. Najmidinovalar ushbu muammo yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, V. M. Karimova va X. G. Sharafutdinova o‘smirlarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ular bilan ishlashning pedagogik usullarini o‘rganishgan.

Ma'lumki, nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas'uliyat, o'zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyligi bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruhni oila deyiladi. Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o'zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi:

birinchidan, oila bir necha o'n yillar va undan ko'p yillar mavjud bo'ladi, yashaydi;

ikkinchidan, oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya'ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi va bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Bunda oilaviy munosabatlarda tarbiyaviy, psixologik, hissiy, moliyaviy, jinsiy va boshqa vazifalarning amalga oshirilishi kuzatiladi;

uchinchidan, oiladagi barcha munosabatlar zaminida salbiy yoki ijobiy holatlar yuzaga keladi, ya'ni oila a'zolaridan kimningdir kimgadir ta'siri oqibatida shaxs yoki yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga yetishi yoki tarbiyasi og'ir, xulqi buzuq odam bo'lib tarbiyalanishi mumkin. Demak, jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-ona va bola, er va xotin, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar aynan oila negizida yuzaga keladi. Shuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari har bir davrning donishmand, olim, mutafakkirlari tomonidan o'rganilib kelinganligini va ularning qarashlarida bu masalalarning yoritilganligini kuzatamiz. Bu qarashlarni, fikrlarni sizning hukmingizga havola etish orqali

Taraqqiyot spektri

oila, o'zaro munosabatlar muammolari bizning hayotimizda doimo muhim masalalar sirasiga kirishini qayd etamiz.

Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti 14 muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg'or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlaming diqqat markazida asosiy masalalardan bo'lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu N asr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Xotam ibn Tay, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko'plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir. Ulaming asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga ham alohida e'tibor berilgan, shuning uchun biz yuqoridagi buyuk mutafakkirlarning ayrim pedagogik va psixologik qarashlari yoritilgan asarlarini tahlil etish orqali talabalarga mazkur muammolarning naqadar dolzarb ekanligini bayon etamiz.[3]

Ota-ona va farzand munosabatlarining ijtimoiy mohiyati shundan iboratki, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar ijtimoiy tajribaning uzatilishini ta’minlovchi muhim tizimdir. Bu jarayonda bola jamiyatdagi me’yorlar, qadriyatlar va ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi. Oila kichik ijtimoiy guruh sifatida shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv muhitidir. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar ba`zi psixologik komponentlarga ega. Bulardan biri bu emotsional yaqinlikdir. U mehr, muhabbat va ishonch asosida shakllanadi. Kognitiv komponent esa, ota-onaning farzand haqidagi qarashlari va kutishlaridir. Xulq-atvor komponentiga nazorat, rag‘batlantirish va jazolash usullarini kiritamiz. Emotsional qo‘llab-quvvatlash yetarli bo‘lgan oilalarda bolalar o‘ziga ishonchli va barqaror bo‘lib voyaga yetadi.[4]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlar quyidagi natijalarga olib keladi:

- farzandning ijtimoiy moslashuvi yaxshilanadi

Taraqqiyot spektri

- emotsional barqarorlik oshadi
- mustaqil fikrlash rivojlanadi

Aksincha, nosog‘lom munosabatlar shaxs rivojida turli psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar shaxs rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Sog‘lom oilaviy muhit va to‘g‘ri tarbiya uslublari orqali barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.[5] Shu bois ota-onalarning psixologik bilimlarini oshirish va oilaviy muloqotni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p omilli, murakkab ijtimoiy-psixologik tizimdir. Bu munosabatlar shaxsning emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, zamonaviy jamiyat sharoitida ota-onaning pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi, farzand bilan samarali muloqot o‘rnatishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O`zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to`g`risida”gi Qonuni //https://www.lex.uz/acts/83472\

2. Shukurova, U., & Iskandarova, S. (2024). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF TEACHING SELF-EDUCATION TO GENERAL SECONDARY EDUCATION STUDENTS. *Modern Science and Research*, *3*(5), 49-52.

3. (OILA PSIXOLOGIYASI o'quv qo'llanma Uchinchi nashr, 14 b, «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT – 2011, Professor G'. B. Shoumarov tahriri ostida M ualliflar: G'. B. Shoumarov, L O. Haydarov, N. A. Sog'inov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova)

4. Rasulova F.F. O‘smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari: Avtoref. diss. ps. fan (PhD): 19.00.06 - T.: 2018. - 48 b.

5. Salayeva M.S. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy1psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. - T.: 2005. - 15 b.